



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



URGANCH RANCH TEXNOLOGIYA UNIVERSITETI
Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya
Tayanch doktorantura (PhD)



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

URGANCH RANCH TEXNOLOGIYA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: RAXIMOVA INDIRA IGOREVNA

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: UMAROVA NAVBAHOR SHOKIROVNA

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

fan doktori (DSc)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAI260005
Xulosa raqami	845
Xulosa sanasi	29.05.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"URGANCH RANCH TEXNOLOGIYA UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Xorazm viloyati, Urganch shahri, Xonqa ko'chasi, 26-a-uy. Guvohnoma: MAS № 0000292, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	19.00.05
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000292, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	19.00.05 – Social Psychology. Ethnopsychology
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	19.00.05 – Социальная психология. Этнопсихология
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	Tayanch doktorantura
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	—
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	3 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	8-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Tadqiqotchi (PhD)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	30 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Xorazm viloyati, Urganch shahri, Xonqa ko'chasi, 26-a-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Qisman muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Qisman muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, ichki me'yoriy asoslar, rivojlantirish strategiyalari, sifatni ta'minlash tizimi hamda tayanch doktorantura ta'lim dasturini boshqarishga oid materiallar kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida universitetda 19.00.05 – "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) ta'lim dasturini tashkil etish, boshqarish va sifatini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy hamda institutsional mexanizmlar shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsad va vazifalari universitetning strategik rivojlanish yo'nalishlari, missiyasi hamda hududning ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari bilan uyg'un holda ishlab chiqilgani kuzatildi. Etnopsixologiya yo'nalishida Xorazm mintaqasining etnomadaniy xususiyatlari va ijtimoiy muhitining ilmiy tadqiqotlar uchun zarur empirik asoslarni shakllantirish imkoniyati mavjudligi, bu esa ilmiy izlanishlarning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qilishi qayd etildi. Shuningdek, ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari hamda manfaatdor tomonlarning ta'lim dasturini rivojlantirish jarayonidagi ishtiroki yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Umuman, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha yaratilgan amaliyot belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar va daliliy materiallar asosida 19.00.05 – "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) ta'lim dasturining mazmuni belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim talablari hamda universitetning strategik rivojlanish yo'nalishlari asosida tizimli ravishda ishlab chiqilgani aniqlandi. Dastur maqsadlari,

kutilayotgan ilmiy natijalar va shakllantiriladigan kompetensiyalarning Milliy malakalar ramkasi hamda oliy ta'limdan keyingi ta'limga qo'yilgan talablarga muvofiq belgilangani kuzatildi. Shu bilan birga, manfaatdor tomonlarning ta'lim dasturini ishlab chiqish jarayonidagi ishtirokini tasdiqlovchi dalillarni kengaytirish hamda dastur mazmunining milliy ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalarga muvofiqligini asoslovchi hujjatlarni yanada takomillashtirish zarurligi qayd etildi. Mazkur holatlar 2.1 va 2.2-mezonlar bo'yicha qo'shimcha takomillashtirish ishlarini amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Umuman, ta'lim dasturining mazmuni belgilangan mezonlar talablariga mosligi, 2.1 va 2.2-mezonlar bo'yicha esa rivojlantirish choralarini davom ettirish maqsadga muvofiqligi e'tirof etildi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida 19.00.05 – "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" ixtisosligi bo'yicha ilmiy tadqiqot jarayonini tashkil etish, monitoring qilish hamda tadqiqot natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tizimli ravishda yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Izlanuvchilar faoliyatini monitoring qilish, akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash, ilmiy rahbarlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tadqiqot natijalarini baholash bo'yicha ichki tartiblar ishlab chiqilgani va amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Psixologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda empirik ma'lumotlarni yig'ish metodikalariga, ilmiy tadqiqot etikasi tamoyillariga hamda olingan natijalarning ishonchliligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgani qayd etildi. Umuman, ilmiy tadqiqot jarayonini tashkil etish, monitoring qilish va tadqiqot natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida 19.00.05 – "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" ixtisosligi bo'yicha izlanuvchilar faoliyatini tashkil etish, monitoring qilish, baholash va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka qabul qilish, ilmiy faoliyatni tashkil etish hamda izlanuvchilar faoliyatini boshqarishga oid jarayonlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tizimli ravishda yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Izlanuvchilarning ilmiy faoliyatining barcha bosqichlarini tartibga soluvchi mexanizmlar, murojaatlarni ko'rib chiqish tartiblari hamda monitoring jarayonlarining belgilab qo'yilgani kuzatildi. Akademik va ilmiy faoliyatni

qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimning mavjudligi ilmiy tadqiqotlarning uzluksiz olib borilishi va izlanuvchilarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qilishi qayd etildi. Umuman, izlanuvchilar faoliyatini tashkil etish, monitoring qilish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida 19.00.05 – "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" ixtisosligi bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatini shakllantirish, rivojlantirish va boshqarish tizimi belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ilmiy-pedagogik kadrlar faoliyatini tashkil etish, ilmiy rahbarlikni yo'lga qo'yish hamda ilmiy faoliyatni boshqarishga oid jarayonlar amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgani aniqlandi. Ilmiy rahbar va ilmiy konsultantlarni tayinlash tartibining belgilab qo'yilgani, ilmiy rahbarlik faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya yo'nalishlarida ilmiy rahbarlarning mazkur soha bo'yicha ilmiy tadqiqot tajribasi, ilmiy nashrlari va kasbiy salohiyati tadqiqot ishlarining sifati hamda ilmiy natijalarning ishonchliligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ilmiy-pedagogik kadrlarni rag'batlantirish va ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi qayd etildi. Umuman, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti hamda raqamli infratuzilmaga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 19.00.05 – "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" ixtisosligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur moddiy-texnik, axborot-resurs va raqamli infratuzilma shakllantirilgani aniqlandi. Universitetda zamonaviy kompyuter texnikalari, multimedia vositalari va elektron doskalarning mavjudligi, ularning ilmiy va ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishi kuzatildi. Shu bilan birga, fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar hamda elektron ta'lim resurslari bilan ta'minlanganlikni yanada takomillashtirish zarurligi qayd etildi. Xususan, ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya yo'nalishlari bo'yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlar fondini boyitish hamda xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi. Mazkur holat 6.2-mezon bo'yicha

qo'shimcha rivojlantirish choralari amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Umuman, moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti va raqamli infratuzilma belgilangan mezonlar talablariga mosligi, 6.2-mezon bo'yicha esa takomillashtirish ishlarini davom ettirish maqsadga muvofiqligi e'tirof etildi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Manfaaddor tomonlar ishtirokida dasturning belgilangan tartibda ishlab chiqilgani (2.1-mezon) dalillar bilan yetarli asoslanmagan.
- ✓ Dasturning milliy ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani (2.2-mezon) bo'yicha kamchilik aniqlandi.
- ✓ Fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar hamda elektron ta'lim resurslari bilan ta'minlanganlik (6.2-mezon) qisman muvofiq deb baholandi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Manfaaddor tomonlar (ish beruvchilar, ilmiy jamoatchilik) ishtirokini dalillar bilan asoslash.
- ✓ Dastur mazmunining milliy ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalarga muvofiqligini ko'rsatish.
- ✓ Ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya bo'yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlar va xalqaro ma'lumotlar bazalariga kirishni kengaytirish.
- ✓ Ilmiy rahbarlarning soha bo'yicha tadqiqot faolligini rag'batlantirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Urganch RANCH texnologiya universitetida 19.00.05 – "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) ta'lim dasturi uchun taqdim etilgan hujjatlar, ilmiy-tadqiqot jarayonini tashkil etish mexanizmlari, inson resurslari hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilgani, dastur maqsadlari universitetning strategik rivojlanish yo'nalishlari hamda hududning ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirilgani aniqlandi. Ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, izlanuvchilar faoliyatini monitoring qilish, akademik halollik

tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash hamda tadqiqot natijalarini baholash tizimining amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Ilmiy rahbarlar tarkibining yetarli ilmiy salohiyat va malakaga ega ekani, moddiy-texnik baza hamda raqamli infratuzilmaning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish uchun zarur sharoitlarni ta'minlashi qayd etildi. Shu bilan birga, ta'lim dasturi mazmuniga oid 2.1 va 2.2-mezonlar hamda o'quv-metodik ta'minotga oid 6.2-mezon bo'yicha mavjud amaliyotni qo'shimcha dalillar bilan mustahkamlash va takomillashtirish zarurligi aniqlandi. Mazkur holatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi hamda asosan rivojlantirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman, ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlari bo'yicha belgilangan talablarni qanoatlantirishi tasdiqlandi, 2.1, 2.2 va 6.2-mezonlar bo'yicha esa qo'shimcha takomillashtirish ishlarini davom ettirish maqsadga muvofiq deb e'tirof etildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

